



IQTISODIY TIZIMLARNING EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIRI: GLOBAL VA MINTAQAVIY YONDASHUVLAR

Xolmamatova Zarinabonu Farxod qizi

Jumanazarova Dilnura Botirovna

Usmonov Muhammadjon Umidjonovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

2-kurs, Iqtisodiyot yo'nalishi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada iqtisodiy tizimlarning ekologik barqarorlikka ta'siri global va mintaqaviy darajada kompleks tahlil qilinadi. Bozor, rejali va aralash iqtisodiyot sharoitida atrof-muhitga ko'rsatiladigan ta'sirlar solishtirilib, ularning ekologik oqibatlari aniq misollar asosida yoritilgan. Xususan, Aral dengizi inqirozi, rivojlangan davlatlarda olib borilayotgan ekologik siyosat hamda suv va energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik siyosatni takomillashtirish orqali barqaror rivojlanishga erishish yo'llari asoslab berilgan. Shuningdek, iqtisodiy qarorlarning ekologik muvozanatga uzoq muddatli ta'siri ilmiy jihatdan baholanadi.

KALIT SO'ZLAR: iqtisodiy tizim, ekologik barqarorlik, bozor iqtisodiyoti, rejali iqtisodiyot, aralash iqtisodiyot, tabiiy resurslar, atrof-muhit muhofazasi

Kirish

So'nggi yillarda ,dunyoda atrof-muhit muammolari bilan bog'liq munosabatlarga juda ko'p duch kelyapmiz. Bu salbiy holatlarga sababchisi sifatida turli iqtisodiy tizimlar ko'rib chiqilyapdi. Yer yuzida insoniyat paydo bo'lgandan boshlab tabiatga bo'lgan munosabat davom etib kelmoqda. Biroq, hozirgi kunga kelib dunyo aholisi sonining oshib borishi tabiatga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Shu jihatdan, keskinlashuvini bartaraf etishning samarali yechimlarini topish o'z yechimini kutayotgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chunki, tabiat va



jamiyat faoliyatining o'zaro aloqadorlik tizimida inson eng asosiy o'rinni egallaydi. Inson bir vaqtning o'zida ham tabiat ham jamiyatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy dunyoda ona tabiatga muhabbatini oshirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirning oldini olish muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish borasidagi bilimlarni o'zlashtirish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, hamda aholi iqtisodiy faoliyatining ekologiyaga salbiy ta'sirini yumshatish borasidagi nazariy ko'nikmalar hosil qiladi.

Ushbu maqola iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmagan holda ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga ham xizmat qiladi.

Insoniyat taraqqiyoti davomida atrof-muhitga bo'lgan munosabat hamda jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglashga ehtiyoj juda qadim zamonlarda shakllangan. Dastlab bu tushunchalar oddiy kuzatuvlar va tajribalar asosida paydo bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ular ilmiy asosga ega bo'lib bordi. Ekologiya fanining shakllanishi ham aynan shu ehtiyoj bilan bog'liq bo'lib, u bugungi kunda tabiat va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganadigan muhim fanlar qatoriga kiradi. Garchi ekologiya fanining yuzaga kelganiga 150 yildan ortiq vaqt bo'lgan bo'lsa-da, u mustaqil fan sifatida asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlandi.

O'rta Osiyo mutafakkirlari ham inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rganib, ekologik tafakkurning shakllanishiga katta hissa qo'shganlar. Xususan, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida tabiat va inson o'rtasidagi muvozanat, biologik xilma-xillik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari keng yoritilgan.

Muhammad al-Xorazmiy o'zining 847-yilda yozgan "Kitob surat al-arz" asarida Yerning tabiiy tuzilishi, okeanlar, materiklar, tog'lar, daryolar, cho'llar va o'rmonlar haqida batafsil ma'lumotlar keltiradi. Bu asar nafaqat geografik, balki



ekologik qarashlarning shakllanishida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda tabiiy resurslar Yerning asosiy boyligi sifatida talqin etilgan.

Abu Rayhon Beruniy esa tabiatdagi hodisalarni o'zaro bog'liqlik va rivojlanish qonunlari asosida tushuntirgan. U Yerdagi mavjud resurslarning cheklanganligini, biroq tirik organizmlarning ko'payishga intilishi natijasida resurslar uchun raqobat yuzaga kelishini ta'kidlagan. Bu fikrlar zamonaviy ekologik iqtisodiyotdagi "cheklangan resurslar va cheksiz ehtiyojlar" muammosi bilan bevosita bog'liqdir. Beruniyning "Saydana" asarida 1116 turdagi dorivor vositalar tavsiflanib, ularning aksariyati tabiiy manbalardan olinishi ko'rsatib o'tilgan. Bu esa insonning iqtisodiy faoliyati tabiiy resurslarga qanchalik bog'liq ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishni ta'minlash har bir jamiyatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiy tizimlarda ekologik omillarni hisobga olish kelajak avlodlar uchun sog'lom va barqaror muhitni saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

1913-yilda amerikalik olim Ch. Adams ekologiyaga oid mavjud ilmiy ma'lumotlarni umumlashtirib, ushbu fan rivojiga muhim hissa qo'shdi. Ekologiya fanida organizm yagona tizim sifatida qaraladi va u tashqi muhit bilan doimiy o'zaro ta'sirda bo'ladi. Har bir tirik mavjudot yashash jarayonida muhitga moslashadi, undan foydalanadi va o'z navbatida unga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan ekologiya nafaqat biologik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik jarayonlar bilan ham uzviy bog'liq fan sifatida shakllandi.

Rejali iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish jarayonlari markazlashgan tarzda, davlat tomonidan qat'iy nazorat ostida boshqariladi. Nazariy jihatdan bunday tizimda ekologik maqsad va cheklovlarni umumiy rivojlanish rejalariga kiritish imkoniyati mavjud. Biroq amaliy tajriba bu imkoniyat har doim ham samarali ishlamaganini ko'rsatadi. Masalan, SSSR davrida paxta yetishtirishni keskin kengaytirish maqsadida daryolardan haddan tashqari suv olinishi natijasida Aral dengizi keskin quriy boshladi. Bu esa mintaqada yirik ekologik inqirozni keltirib chiqardi.



Shuningdek, sanoat xavfsizligiga yetarlicha e'tibor qaratilmagani oqibatida bir qator yirik ekologik falokatlar yuzaga kelgan. Jumladan, Chernobil halokati hamda Norilsk hududidagi kimyoviy ifloslanish holatlari bunga misol bo'la oladi. Ushbu hududlarda har yili taxminan 1,9 million tonna oltingugurt dioksidi atmosferaga chiqarilgani qayd etilgan bo'lib, bu atrof-muhit va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazgan.

Aralash iqtisodiyot esa bozor mexanizmlari va davlat tartibga solish choralarini uyg'unlashtirgan holda, ekologik barqarorlikni ta'minlashga nisbatan samaraliroq yondashuvni taklif etadi. Masalan, Germaniya qayta tiklanuvchi energiya manbalarini faol rivojlantirish orqali 2022-yilga kelib ularning ulushini 46 foizga yetkazdi hamda 2023-yil aprel oyida oxirgi atom elektr stansiyasini yopdi. Bu esa mamlakatning ekologik xavfsizlikka bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi.

Ekologiya dastlab biologiya tarkibida shakllangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan mustaqil fan sifatida ajralib chiqib, bugungi kunda keng qamrovli makroekologik yo'nalishga aylangan. Hozirgi davrda u turli ilmiy sohalar bilan chambarchas bog'lanib, kompleks tarzda rivojlanmoqda. Ekologiyaning boshqa fanlar bilan yaqin aloqada bo'lishi, shuningdek, ularning tadqiqot usullaridan foydalanishi orqali mavjud muammolarni samarali hal etishga xizmat qilmoqda.

Umumiy ekologiya barcha ekologik yo'nalishlar va tadqiqot usullarini o'zida mujassam etgan asosiy fundamental fan hisoblanadi. Uning nazariy asosini nazariy ekologiya tashkil etib, u ekologik tizimlarning mavjud bo'lish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ekologik jarayonlarni o'rganishda tajriba usullari keng qo'llanilib, ilmiy natijalarning aniqligini ta'minlaydi.

Eksperimental ekologiya ekologik hodisalarni tajriba orqali o'rganishga ixtisoslashgan bo'lib, uning natijalari ekologiyaning boshqa yo'nalishlarida ham keng tatbiq etiladi. Shu bilan birga, ayrim murakkab jarayonlar modellashtirish usullari orqali tahlil qilinadi. Masalan, laboratoriya sharoitida yaratilgan sun'iy ekologik tizimlar yoki matematik modellar yordamida tabiiy jarayonlar simulyatsiya qilinadi. Ayniqsa, matematik modellashtirish so'nggi yillarda keng qo'llanilib, nazariy ekologiyaning muhim asoslaridan biriga aylangan.



Ijtimoiy ekologiya inson ekologiyasining tarkibiy qismi bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmalar — oila, ijtimoiy guruhlar va boshqa birliklarning tabiiy hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqalarini o'rganadi. Bu yo'nalishga aholi ekologiyasi, ekologik demografiya, etnoslar ekologiyasi va etnogenez ekologiyasi kabi sohalar kiradi. Shuningdek, unda sivilizatsiya taraqqiyoti va tarixiy rivojlanish jarayonlari ham ekologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Inson ekologiyasi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida XX asr boshlarida shakllangan bo'lib, 1921-yilda Robert E. Park va Ernest Burgess tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Dastlab u tibbiyot sohasi bilan bog'liq holda rivojlangan bo'lsa, keyinchalik ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, huquqiy va boshqaruv yo'nalishlarini ham qamrab oldi. Ushbu fan inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni, shuningdek, muhitning inson hayoti va faoliyatiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganadi. Ijtimoiy ekologiya esa aynan inson ekologiyasi rivoji natijasida shakllanib, unga dastlab Roderick D. McKenzie ilmiy ta'rif bergan. Bu fan jamiyat va tabiat o'rtasidagi murakkab ekologik munosabatlarni o'rganishga qaratilgan.

Gidroekologiya (dengiz va chuchuk suv ekologiyasi) suv havzalarida yashovchi tirik organizmlarning hayot faoliyati, o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi va tarqalish qonuniyatlarini o'rganadi. O'simliklar ekologiyasi esa o'simliklarning muhit sharoitlariga moslashuvi, morfologik xususiyatlari, turlari va tarqalishini tadqiq etadi.

Xususiy ekologiya umumiy ekologik qonuniyatlarni alohida organizmlar, turlar, yashash muhirlari va turli iqlim sharoitlaridagi biogeotsenozlarga tatbiq etishni o'rganadi. Bu yo'nalish ekologik bilimlarni aniq sharoitlarda qo'llash imkonini beradi.

Hozirgi davrda ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlash dolzarb masalaga aylangan. Barqaror rivojlanish shuni anglatadiki, insoniyat o'z ehtiyojlarini qondirish jarayonida kelajak avlodlar manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim. Aks holda, tabiiy muhitning yemirilishi insoniyatning o'zi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli insonning tabiat ustidan mutlaq hukmronligi haqidagi qarashlardan voz kechib, tabiat bilan uyg'unlikda yashash tamoyillarini rivojlantirish zarur. Aks holda



“ekologik bumerang” — ya’ni inson tomonidan tabiatga yetkazilgan zarar yana insonning o‘ziga qaytib kelishi muqarrar.

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ekologik ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekistonda ham ekologik madaniyatni oshirish, mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini rivojlantirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-yil 21-aprelda qabul qilingan “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5024-sonli farmon¹ asosida ekologik ta’lim, targ‘ibot va malaka oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar belgilangan.

Dunyoning turli davlatlarida qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish uchun bir gektar yerga sarflanayotgan suv hajmi bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samarali suv ishlatish bo‘yicha Isroilning tajribalari yetakchilik qilmoqda. Masalan, AQShning Kaliforniya shtatida bitta gektarga 12–14 ming m³, Hindistonda 19–22 ming m³, Pokistonda 18–20 ming m³, Turkiyada 14–20 ming m³, Xitoyda 15–17 ming m³, Turkmanistonda 15–19 ming m³, Qozog‘istonda 25–35 ming m³, Rossiyaning Krasnodar mintaqasida 20–25 ming m³ suv sarfi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, Isroilda tomchilatib sug‘orish texnologiyasi orqali suv sarfi taxminan 6 ming m³ni tashkil qiladi, O‘zbekistonda esa bir gektarga gross hisobda 11–12 ming m³ suv ishlatiladi, ammo netto suv sarfi bundan ancha past.

O‘zbekistonda sug‘oriladigan maydonlarning taxminan 50 foizida sho‘rlanishni yuvish maqsadida qo‘shimcha suv sarfi talab qilinadi, buni hisobdan chiqarib tashlaganda, real suv sarfi bir gektar uchun 8,9 ming m³ni tashkil etadi. Shu bilan, O‘zbekistonning suv ishlatish samaradorligi Isroilda qo‘llanilayotgan tomchilatib sug‘orish texnologiyasi doirasidagi suv tejash ko‘rsatkichlariga yaqinlashmoqda.

¹ www.lex.uz – O‘zbekiston respublikasi qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.



1-rasm.Sug'orma dehqonchilik bir gektar uchun suv sarfi miqdori ²

№	Davlatlar	Suv sarfi (m ³ /ga)
1	Isroil	6000
2	Pokiston	18000
3	Rossiya	20000
4	Turkiya	14000
5	Turkmaniston	15000
6	Xitoy	15000
7	O'zbekiston (brutto)	12000
	O'zbekiston (netto)	7000
8	Qozog'iston	25000
9	Hindiston	19000

Bundan tashqari, Yaponiya, Turkiya, Xitoy, Isroildan tashqari, Fransiya, Gollandiya, Suriya, Hindiston, Pokiston, AQSh, Kanada, Italiya, Indoneziya, Ispaniya, Marokash, Misr va Nigeriya kabi davlatlarda suv xo'jaligi sohasida olib borilgan islohotlar natijasida suv resurslaridan tejab-tergab foydalanish va suv uchun to'lov mexanizmlari samarali yo'lga qo'yilgan.

Ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda suv resurslaridan foydalanish xarajatlari davlat nazorati ostida amalga oshiriladi: ba'zilarida bu davlat subsidiyalari orqali, boshqalarida esa ma'muriy-boshqaruv mexanizmlari asosida tartibga solinadi. Shu tarzda suvdan oqilona foydalanish iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tabiiy gaz va undan oqilona foydalanish bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi nuqtai nazaridan muhim masalaga aylangan. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida global miqyosda energiya resurslariga bo'lgan talab keskin oshib, ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi energiya iste'molining yuqori sur'atlarda o'sishiga olib keldi. Ushbu jarayonda asosiy energiya manbalari sifatida organik yoqilg'ilardan keng foydalanilishi ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

² Manba-To'raboyeva.K.U.Atrof-muhit o'zgarishi:darslik.-Toshkent:"Kreativ fikrlash nashriyot manbaa uyi",2025




Issiqlik elektr stansiyalari hamda ichki yonuv dvigatellarining faol ishlatilishi natijasida atmosferaga katta miqdorda zararli gazlar chiqarilmoqda. Bu esa issiqxona effektining kuchayishiga va global haroratning oshishiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. So'nggi o'n yilliklarda yoqilg'i qazib olish hajmining keskin ortgani resurslardan haddan tashqari intensiv foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda neft, tabiiy gaz, ko'mir va boshqa an'anaviy energiya manbalari asosiy o'rinni egallab kelmoqda. Biroq ularning zaxiralari cheklangan bo'lib, doimiy iste'mol natijasida kamayib bormoqda. Mavjud hisob-kitoblarga ko'ra, ayrim resurslar yaqin o'n yilliklarda sezilarli darajada qisqarishi mumkin, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi.

Energiya resurslarining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi ham muhim muammo hisoblanadi. Ayrim hududlarda resurslar mo'l bo'lsa, boshqalarida ularning yetishmasligi kuzatiladi. Bu holat energiya narxlarining oshishiga, iqtisodiy tengsizlikning kuchayishiga hamda ayrim hollarda geosiyosiy ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, organik yoqilg'ilarni qazib olish, qayta ishlash va ulardan foydalanish jarayonlarida ko'plab zararli chiqindilar ajralib chiqadi. Ushbu chiqindilar atmosfera, suv va tuproqni ifloslantirib, tabiiy muhitga va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli resurslardan samarali va tejamkor foydalanish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

"Bi-Pi" reytingida davlatlardagi tasdiqlangan gaz zaxiralari ko'rsatkichlari(trln kubometrda):



Shu jumladan O'zbekiston bu reytingda 24-o'rinni egallaydi va respublikaning tasdiqlangan gaz zaxiralari 1,2 trln kubometrni, yoki butun jahon gaz zaxiralarning 0,6 foizini tashkil qiladi.


OPEK tashkilotining reytingida esa bu raqamlar boshqacha ko'rinish olgan:

1. Rossiya - 50,2 (umumiy hajmning 24,3 foizi)
2. Eron - 33,9 (16,5 foiz)
3. Qatar 23,8 (11,5 foiz)
4. AQSh 13,4 (6,9 foiz)
5. Turkmaniston - 12,17 (5,91 foiz)
6. Saudiya Arabistoni - 9,4 (4,5 foiz)
7. BAA - 6,09 (2,95 foiz)
8. Nigeriya - 5,76 (2,79 foiz)
9. Venesuela - 5,67 (2,75 foiz)
10. Jazoir - 4,5 (2,18 foiz)

OPEK reytingida Jazoir kuchli o'nlikni yakunlab bergan va Rossiyaning ko'rsatkichlari keskin oshib ketgan. O'zbekiston esa mazkur reytingda 1,522 trln kubometr gaz zaxirasi yoki dunyodagi umumiy gaz hajmining 0,74 foizi bilan 22-o'rinni egallagan.




2022-yil yakuniga ko'ra British Petroleum reytingi bo'yicha gaz qazib oluvchi yetakchi davlatlar quyidagilarni tashkil etgan (mlrd kubometr/dunyo bo'yicha ulush):



Xulosa qilib aytganda, gaz zaxirasi egalarining barchasi ham qazib olishda yetakchi bo'lishmagan. O'zbekiston bu reytingda 2022-yil natijalariga ko'ra 47,1 mlrd. kub va 1,2 % bilan 17-o'rinni egallagan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini energiya balansiga keng jalb qilish atrof-muhitga zararli texnogen ta'sirlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Bunday manbalar uglevodorod resurslarini elektr energiya ishlab chiqarishda yoqib yubormasdan, ularni neft-kimyo sanoati uchun muhim xom ashyo sifatida saqlab qolish imkonini beradi. Shu bilan birga, markaziy energiya ta'minotidan uzoq va yetib borish qiyin bo'lgan hududlarda qayta tiklanuvchi energiya iqtisodiy jihatdan maqbul, qulay hamda barqaror energiya manbai hisoblanadi.

2-rasm. ³2023-yil mart oyida butun dunyo bo'ylab maishiy elektr energiyasi narxlari, tanlangan mamlakatlar bo'yicha (KVt/soat uchun AQSH dollard



2023-yil mart oyi holatiga ko'ra maishiy elektr energiyasi tariflari ayrim Yevropa davlatlarida eng yuqori darajaga yetgani kuzatilgan. Xususan, Italiyada uy xo'jaliklari bir kilovatt-soat elektr energiyasi uchun o'rtacha 0,56 AQSh dollari, Buyuk Britaniyada esa 0,46 AQSh dollari miqdorida to'lov amalga oshirgan. Taqqoslash uchun, Fransiya va AQShda ushbu ko'rsatkichlar deyarli uch baravar past bo'lib, bu mamlakatlar o'rtasida energiya narxlarida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

Elektr energiyasi narxlarining shakllanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida energetik infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, geografik sharoitlar, energiya resurslari bilan ta'minlanganlik hamda davlat tomonidan belgilangan soliq va tarif siyosati muhim o'rin tutadi. Ayrim mamlakatlarda, xususan Buyuk Britaniya va Avstriyada, soliqlar va turli yig'imlar yakuniy iste'molchi uchun elektr energiyasi narxining sezilarli qismini tashkil etadi.

³ <https://www.statista.com/search/?q=energetika>



Xulosa

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy tizimlar va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy jamiyat taraqqiyotining eng muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Har qanday iqtisodiy tizim — u bozor, rejali yoki aralash bo‘lishidan qat’i nazar — o‘z faoliyati davomida tabiiy resurslardan foydalanadi va atrof-muhitga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli iqtisodiy rivojlanish va ekologik muvozanat o‘rtasida muvozanatni ta’minlash har bir davlat oldida turgan strategik vazifadir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari mavjud bo‘lsa-da, ekologik xarajatlarning yetarli darajada hisobga olinmasligi natijasida “bozor muvaffaqiyatsizligi” yuzaga keladi. Bu esa atrof-muhitning ifloslanishi, resurslarning kamayishi va ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. London smogi kabi tarixiy hodisalar buni yaqqol tasdiqlaydi. Rejali iqtisodiyotda esa markazlashgan boshqaruv ekologik masalalarni nazariy jihatdan nazorat qilish imkonini bersa-da, amaliyotda noto‘g‘ri rejalashtirish va resurslardan haddan tashqari foydalanish yirik ekologik inqirozlarga sabab bo‘lgan. Aral dengizining qurishi, sanoat hududlaridagi ifloslanish holatlari bunga misol bo‘la oladi.

Aralash iqtisodiyot modeli esa iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlikni uyg‘unlashtirish imkonini beruvchi eng maqbul yondashuv sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu modelda davlat tomonidan ekologik siyosatni kuchaytirish, soliq va tartibga solish mexanizmlarini joriy etish hamda bozor instrumentlaridan oqilona foydalanish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish mumkin. Germaniya, Shvetsiya kabi davlatlar tajribasi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, karbon chiqindilarini kamaytirish va ekologik siyosatni takomillashtirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatadi.



Bundan tashqari, maqolada suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, energiya manbalarining cheklanganligi va ularning atrof-muhitga ta'siri kabi muhim masalalar ham yoritildi. Xususan, tomchilatib sug'orish texnologiyalarini qo'llash orqali suv sarfini sezilarli darajada kamaytirish mumkinligi hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish ekologik muammolarni hal etishda muhim omil ekanligi asoslab berildi. Energiya resurslarining notekis taqsimlanishi va ularning haddan tashqari iste'moli nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va geosiyosiy muammolarni ham keltirib chiqarishi qayd etildi.

Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta'minlash faqat iqtisodiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, balki ekologik ta'limni rivojlantirish, aholining ekologik madaniyatini oshirish va barqaror turmush tarzini shakllantirish bilan ham chambarchas bog'liqdir. Inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni saqlash, ekologik ongni shakllantirish va resurslardan mas'uliyat bilan foydalanish kelajak avlodlar uchun sog'lom muhit yaratishning asosiy sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Shodmonov. *Iqtisodiyot nazariyasi*. – Toshkent, 2020.
2. Zaxidov G'.E., Asqarova M.T., Djumayev Z.A., Amirov L.F., Hakimov H.A. *Makroiqtisodiyot: darslik*. — Toshkent, 2019. — 290 bet.
3. To'raboyeva.K.U. *Atrof-muhit o'zgarishi:darslik.-Toshkent:"Kreativ fikrlash nashriyot manbaa uyi",2025*
4. *Textbook of Environment and Ecology*. Springer Nature. London. 2024. 361 c.
5. Muftaydinov Q. va boshqalar. *Ekologiya*. – Toshkent, 2020.
6. *Atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti*. – O'quv qo'llanma, 2024.
7. Xo'janazarov O', Yakubjonova Sh. *Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish*. – Toshkent, 2018.
8. *Yashil iqtisodiyot asoslari*. – O'quv qo'llanma, 2024.
9. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bazasi
10. www.statista.com – xalqaro statistik ma'lumotlar bazasi